

BRIFING



Ta'kidlash joizki, O'zbekiston – yoshlar mamlakati. Aholining 60 foizga yaqinini yoshlar tashkil etadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev farzandlarimiz zamonaviy ta'lim-tarbiya olishi, kasb-hunar egallashi, o'ziga munosib ish topib, farovon hayot kechirishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Yurtimizda har bir o'g'il-qizning dardu-tashvishini tinglaydigan, intilishlarini qo'llab-quvvatlaydigan tizim yaratildi.

Yaratilgan yangi tizim asosida eng birinchi o'rinda yoshlar yetakchilari tomonidan uyma-uy yurib, "Yoshlar balansi" to'liq shakllantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni "Yoshlar daftari"ga kiritish hamda mahallalarda uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Shu nuqtai nazardan, Termiz shahrida 2023 yilning 6 oyi davomida yoshlar yetakchilari tomonidan mahallalarda 1-bosqich yoshlar xatlovi o'tkazilib, 14-30 yoshdagi 50 ming 012 nafar yoshlarning 5 ta toifa (bandlik, ta'lim, oilaviy, ijtimoiy va salomatlik holatlari) bo'yicha "Yoshlar balansi" shakllantirildi.

2023 yil boshidagi xatlov va o'rganish natijalariga ko'ra, "Yoshlar balansi" asosida aniqlangan ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj 1246 nafar yoshlarimiz "Yoshlar

daftari”ga kiritildi (Ma’lumot uchun: 2022 yil davomida 1 ming 924 nafar yoshlarga 6,8 mlrd. so’mlik turli yordamlar ko’rsatilib, daftardan chiqarilgan).

Ulardan 603 nafariga zamonaviy kasblar, “Ay-Ti”, ilm-fan, xorijiy tillarga o’qitish, mehnat qurollari xaridi uchun subsidiya ajratish, kontrakt to’lovini to’lash kabi 25 ta yordam turlari doirasida amaliy ko’mak ko’rsatilib, ushbu maqsad uchun jami 941,7 mln. so’m mablag’ yo’naltirildi.

Hozirgi kunda “Yoshlar daftari”da qolgan 643 nafar yoshlarga quyidagi yo’nalishlar bo’yicha yordam berilib daftardan chiqarish rejalashtirilgan. Jumladan:

150 nafari bandligi ta’minlanadi, kasb-hunarga o’qitiladi;

14 nafari imtiyozli kredit va subsidiya beriladi;

33 nafari IT, zamonaviy kasblar, xorijiy tillarni o’rganish uchun yoshlarga subsidiya beriladi;

146 nafari doimiy ish bilan bandligi ta’minlanadi;

300 nafari Ijtimoiy iqtisodiy muammolari hal etiladi va daftardan chiqariladi.

Butun respublikamizda bo’lgani kabi tasdiqlangan grafik asosida har haftada mahallalarda “Hokim va yoshlar” uchrashuvi, Sektor rahbarlari uchrashuvlari tizimli o’tkazilib kelinmoqda.

Uchrashuvlarda yoshlar tomonidan bildirilgan g’oya, taklif yoki tashabbuslarni qo’llab-quvvatlab, ularning muammolarini hal qilish bo’yicha barcha zarur choralar ko’rilmoqda.

Misol tariqasida aytadigan bo’lsak, qisqa vaqt ichida “Hokim va yoshlar” uchrashuvida yoshlar tomonidan ko’tarilgan masalalar va takliflar asosida “Bog’zor”, “Eski shahar”, “Bog’ishamol”, “Guliston” va “Manguzar” mahallalarida yoshlarimiz uchun “Strit-Vorkaut” sport maydonchalari qurib berildi.

“Bog’zor” mahallasiga yoshlar uchun yangi kutubxona qurib, zamonaviy jihozlandi va 1200 donadan ortiq turli kitoblar bilan ta’minlandi.

Shuningdek, Termiz shahar bolalar va o’smirlar sport maktabiga 100,0 mln. so’m ajratib, qishgi suzish havzasining isitish tizimi ta’mirlandi va qishgi mavsumda ham to’liq ishlashi yo’lga qo’yildi. Yoki aynan shu maktabda shug’ullanuvchi yoshlarning taklifiga asosan, ularga 50,0 mln. so’mlik sport jihozlari olib berildi.

Shahar hokimining o’rinbosari K.Ashurov